O'zbekiston so'nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar uchun kafolatlarni kuchaytirish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga mos investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, investitsiya siyosatini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ularning amaliy ijrosi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam institutsional zamin yaratdi.

Barqaror iqtisodiyotni mamlakatimizda ta'minlash borasida hamda ushbu sohada investitsiyalarning ahamiyatini tushunga holda mamlakatimizda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risidagi PF-16-son[1] Farmonida investitsion siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilab, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida modernizatsiya va innovatsion rivojlanishga xizmat qiluvchi loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamladi. Ushbu strategiyada investitsiyaga oid bo'lgan quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan, jumladan:

mamlakatni yuqori daromadli davlatlar darajasiga olib chiqish, doimiy iqtisodiy o'sish va raqobatbardosh milliy iqtisodiyot yaratish;

investitsiyalar ushbu strategiyaning asosiy drayverlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan. Strategiya doirasida davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish, xususiy sektor ulushini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va chet ellik hamkorlarni jalb etish chora-tadbirlari nazarda tutilgan;

strategiyada "milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini oshirish" maqsadi belgilangan. Bu esa eksportga yo'naltirilgan investitsiyalar sanoat quvvatlarini kengaytirish, innovatsiyalar, eksportga mo'ljallangan yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirish nazarda tutilgan;

strategiyaning amalga oshirilishini ta'minlash uchun davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, shaffoflik, qonunchilik bazasini mustahkamlash, investorlarning huquqlarini himoya qilish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish kabi institut-siyosiy islohotlar ham e'tiborga olingan. Bu esa investitsion jozibadorlik va xususiy sektor ishtirokini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni[2] investitsiya jarayonlarining huquqiy asoslarini, investorlar huquqlarining kafolatlarini, davlatning investorlarga nisbatan majburiyatlarini aniq belgilab berdi. Ushbu qonun investitsiya faoliyatining shaffofligini va barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Investitsiya loyihalarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5635-son Qarori[3] investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish, monitoring tizimini kuchaytirish va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy etdi.

O'zbekistonning xalqaro investitsiya maydoniga integratsiyalashuvi va biznes yuritish sharoitlarining yaxshilanishi ham mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirmoqda. Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sifatida e'tirof etilmoqda.

Mazkur tadqiqot investitsiyalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi rolini ilmiy asoslangan holda empirik tahlil qilish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan institutsional va huquqiy islohotlarning samaradorligini baholash hamda investitsiyaviy siyosatni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gafsi va Bakari (2025)[4] AQSh uchun 1990 - 2022 yillar ma'lumotlari asosida ichki investitsiyalar, YaIM va $CO_2$ chiqindilari o'rtasidagi dinamik aloqani VECM va kointegratsiya usullari yordamida baholaydi. Ular uzoq muddatda ichki investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy ikki yo'nalishli bog'liqlik mavjudligini, iqtisodiy o'sish va ekologik ko'rsatkichlar o'rtasida ham ijobiy ta'sir borligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, atrof-muhit sifati bilan investitsiya hajmi o'rtasida ayrim ziddiyatlar ($CO_2$ oshishi) qayd etilib, barqaror rivojlanish uchun "yashil" investitsiya siyosatini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi.

Naran, Buchner (2024)[5] global iqlim moliyalashtirish oqimlarini umumlashtirib, 2018 - 2022 yillarda yiliga o'rtacha 674 mlrd. AQSh dollaridan 1,46 trln. dollargacha oshganini ko'rsatadi, biroq Parij kelishuvi maqsadlariga erishish uchun 2030 yilgacha bu miqdorni taxminan 5 barobar oshirish zarur ekanini asoslaydi.

Hisobotda rivojlangan mamlakatlar, Xitoy va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda “yashil” investitsiyalar iqtisodiy o‘sish va dekarbonizatsiyaning asosiy drayveri ekani, lekin moliyaviy resurslar taqsimotida hududlararo katta tafovutlar mavjudligi ko‘rsatiladi.

Sofrankova (2021)[6] Yevropa Ittifoqining 28 davlati bo‘yicha panel regressiya usuli yordamida barqaror iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichini (SEDA) turli global indekslar (innovatsion faollik, biznes muhiti, iqtisodiy erkinlik, korrupsiya darajasi, inson kapitali) bilan bog‘laydi. Natijalarga ko‘ra, innovatsion salohiyat va biznes muhitining yaxshilanishi investitsiyalar samaradorligini oshirib, barqaror rivojlanish darajasini sezilarli ravishda ko‘taradi, shuningdek, institutlar sifati past bo‘lgan mamlakatlarda investitsiya oqimlari barqaror iqtisodiy o‘sishga to‘liq transformatsiyalanmasligi ta’kidlanadi.

Suleymanov (2021)[7] Rossiya iqtisodiyoti uchun xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimining barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi rolini tahlil qiladi. U 2000-yillardan boshlab XTI oqimi sanoatning qator tarmoqlarida texnologik yangilanish, ish o‘rinlari yaratilishi va eksport salohiyatining ortishiga xizmat qilganini, biroq institutsional muammolar va resurslarga qaramlik sababli XTI salohiyati to‘liq ro‘yobga chiqmayotganini ko‘rsatadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, MDH davlatlarida investitsiya oqimlari samarasini oshirish uchun institutsional islohotlar va iqtisodiy diversifikatsiya muhim shart hisoblanadi.

Ainur (2025)[8] Qozog‘iston moliya tizimi va investitsiya siyosatini barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida ko‘rib chiqadi. Strategik hujjatlar tahlili va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida muallif yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar, infratuzilma va “yashil” loyihalarga yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalar uzoq muddatli barqaror o‘sish yo‘lini ta’minlashini ta’kidlaydi. Davlat va xususiy sektor hamkorligida innovatsion va “yashil” investitsiyalarni rag‘batlantirish Qozog‘istonning barqaror rivojlanish strategiyasining markaziy yo‘nalishi sifatida talqin etiladi.

N. Nabiyeva va B. Mamatov (2020-2024)[9] O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning o‘rni va ularning makroiqtisodiy o‘sish hamda tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqotlarda ichki va xorijiy investitsiyalar hajmining barqaror oshib borishi sanoatning modernizatsiyasi, infratuzilma rivoji va yangi ish o‘rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlayotgani, biroq investitsiyalarni hududlar va tarmoqlar bo‘yicha muvozanatli taqsimlash zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosati (soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar, xususiy mulk himoyasi) barqaror rivojlanish uchun asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.

Y. Matyakubova (2024)[10] O‘zbekiston hududlari kesimida panel ma’lumotlar tahlili asosida investitsiya faolligi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. UNCTAD metodikalariga tayangan holda muallif investitsiyalarning ayrim mintaqalarda yuqori darajada konsentratsiyalashgani, bu esa hududlararo rivojlanish nomutanosibligini kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Panel regressiya natijalari investitsiya hajmi va tarkibi hududiy iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri ekanini, lekin barqaror rivojlanish uchun institutsional islohotlar, infratuzilma va inson kapitaliga yo‘naltirilgan qo‘shimcha investitsiyalar zarurligini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, xalqaro va milliy adabiyotlar barqaror iqtisodiy rivojlanishda investitsiyalar ahamiyatini tasdiqlaydi va O‘zbekiston uchun ham ichki va tashqi investitsiyalarni innovatsion, “yashil” va hududiy muvozanatli yo‘nalishlarda boshqarish zarurligini ilmiy asoslab beradi.

## TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda barqaror iqtisodiy rivojlanishda investitsiyalarning rolini baholash uchun kombinatsiyalashgan metodologik yondashuv qo‘llanildi. Dastlab nazariy-metodologik asos sifatida investitsiyalar, iqtisodiy o‘sish, modernizatsiya va “yashil” iqtisodiyotga oid ilmiy adabiyotlar hamda O‘zbekistonning amaldagi strategik hujjatlari o‘rganildi. Bu yondashuv investitsion siyosatning konseptual asoslarini aniqlashga imkon berdi.

Empirik qismda investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash uchun ekonometrik tahlil usullari qo‘llanildi. O‘zgaruvchilar o‘rtasidagi uzoq va qisqa muddatli ta’sirlarni aniqlash maqsadida regressiya modellaridan, shuningdek korrelyatsiya, kovariatsiya, trend tahlili va modelning barqarorligini tekshiruvchi diagnostik testlardan foydalanildi. Metodologiya investitsiya oqimlarining iqtisodiy faollik, ishlab chiqarish samaradorligi va tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sirini aniqlashga qaratildi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda qabul qilingan investitsiyaviy islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va institutsional yangiliklar mazmuniy tahlil metodi orqali baholandi. Bu yondashuv investitsiya siyosati amaliyotining kuchli va zaif jihatlarini aniqlash va takomillashtirish bo‘yicha asoslangan xulosalar berish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatning bqararor iqtisodiy rivojlanishida investitsion salohiyat va uning tarkibiy qismi asosiy o‘rinlarda turadi. Mamlakatning investitsion salohiyati ushbu mamlakatning bugungi kundagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarining qay darajada mustahkam hamda barqaror ekanidan dalolat beradi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning muntazam ravishda oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumin, shundan kelib chiqib aytish mumkunki iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik ko‘rsatkichlari mamlakatimizda ham oshib bormoqda.

Quyidagi berilgan jadvalda mamlakatimizda so‘ngi yillarda kiritilgan investitsiya hajmining yillar kesimida o‘zgarish hamda ularning tarkibi ko‘rsatkichini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval. 2010-2024-yillar oralig‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va ularning tarkibi[11]

| Yillar | Asosiy kapitalga investitsiyalar (Mlrd so‘m) | Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’ati (%) | Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi (%) | Asosiy kapitalga investitsiyalarda davlat budjeti ulushi (%) | Asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o‘z mablag‘lari ulushi (%) | Asosiy kapitalga investitsiyalarda boshqa mablag‘lar ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **2010** | 16463,7 | 104,2 | 26,4 | 5,2 | 52,5 | 16 |
| **2011** | 19500 | 102,6 | 19,8 | 5,5 | 57,1 | 18 |
| **2012** | 24455,3 | 110,6 | 19 | 4,7 | 56 | 20 |
| **2013** | 30490,1 | 111,3 | 18,1 | 5 | 57,9 | 19 |
| **2014** | 37646,2 | 109,8 | 18,5 | 4,2 | 57,6 | 20 |
| **2015** | 44810,4 | 109,4 | 18,5 | 4,2 | 56,2 | 21 |
| **2016** | 51232 | 104,1 | 20,7 | 4,3 | 54,4 | 21 |
| **2017** | 72155,2 | 119,4 | 23,8 | 4,8 | 47,3 | 24 |
| **2018** | 124231,3 | 129,9 | 24,3 | 4,5 | 42 | 30 |
| **2019** | 195927,3 | 138,1 | 43,6 | 9 | 29,3 | 18 |
| **2020** | 210195,1 | 95,6 | 42,7 | 6,8 | 40,8 | 9 |
| **2021** | 239552,6 | 102,9 | 42,3 | 9,3 | 38 | 10 |
| **2022** | 266240 | 100,2 | 42,8 | 8 | 40,6 | 9 |
| **2023** | 356071,4 | 123,4 | 56,7 | 6,5 | 31,8 | 5 |
| **2024** | 507490,2 | 131,3 | 69,4 | 4,6 | 23,1 | 3 |

Umumiy olib qaraganda 2010-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan oraliqda umumiy asossiy kapitalkga kiritilgan investitsiyalar hajmi muntazam ravishda oshib brogan. Umuman olganda 35 barobarga yaqin o‘sishni ko‘rishimiz mumkin. Quyidagi berilgan infografiokada buni to‘liqrqo ko‘rishimiz mumkin.




1-rasm. 2010-2024-yillar oralig‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning infogragikasi[12]

2010 – 2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi keskin o‘sish trendiga ega bo‘lib, mazkur davr iqtisodiy islohotlar, modernizatsiya jarayonlari va investitsiya siyosatidagi

bosqichma-bosqich liberallashuvni yaqqol aks ettiradi. Davrning boshida, ya’ni 2010–2015 yillarda investitsiyalar hajmi nisbatan barqaror, past sur’atda o‘suvchi dinamikaga ega bo‘lgan. Ushbu yillarda investitsiyalarning asta-sekin ko‘tarilishi iqtisodiy tizimda keskin o‘zgarishlar kuzatilmagan davr sifatida tavsiflanadi.

2016 – 2017-yillardan boshlab investitsiyalar hajmida sezilarli o‘sish kuzatila boshlagan bo‘lib, bu mamlakatda olib borilgan iqtisodiy liberallashuv, yangi investitsiya siyosatining joriy etilishi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi natijasi hisoblanadi. Aynan 2017 yil investitsiya o‘sishining birinchi burilish nuqtasi bo‘lib, oldingi yillarga nisbatan ancha yuqori sakrash kuzatilgan.

2018 – 2020-yillarda o‘sish dinamikasi davom etgan bo‘lsada, pandemiya ta’siri sabab 2020 yilda investitsiya oqimlari biroz sekinlashgan. Grafikda bu davr o‘sish sur’atining pastlash, ammo kamaymaslik tendensiyasini ko‘rsatadi — ya’ni investitsiyalar kamaymagan, lekin avvalgidek tez o‘smagan. Bu iqtisodiyotning pandemiya sharoitida ham investitsiya jarayonlarini to‘xtatmaganini, tarkibiy loyihalarning davom etganini bildiradi.

2021 – 2022-yillardan esa investitsiyalar yana tezlashgan trendga qaytgan. Bu yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan infratuzilma loyihalari, sanoat klasterlari rivoji hamda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati kengayishi bilan bog‘liq. Ushbu davrda o‘sish sur’atlari yanada barqaror va yuqori bo‘lgan.

Eng kuchli o‘sish 2023 – 2024-yillarda kuzatiladi. 2023-yilda investitsiyalar hajmi 356 trln so‘m atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 507 trln so‘mdan oshib ketgan. Bu ikkinchi katta burilish nuqtasi bo‘lib, investitsiyalar hajmi bir yilda keskin 150 trln so‘mdan ko‘proqqa oshgan. Ushbu keskin o‘sish mamlakatda investitsion muhit yaxshilanishi, yirik sanoat va energetika loyihalarining ishga tushirilishi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengayishi hamda xususiy sektor faolligining oshishi bilan bog‘liq.

Umuman olganda, 2010 – 2024-yillar bo‘yicha dinamikani tahlil qilar ekanmiz, investitsiyalar pasaygan yil yo‘qligi, aksincha, o‘sish sur’atlari turli bosqichlarda tezlashib yoki sekinlashib borganini ko‘ramiz. Bu esa iqtisodiy siyosatning investitsiyalarga yo‘naltirilganligini, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga ustuvor e’tibor qaratilganini va iqtisodiyotning modernizatsiya bosqichlari izchil davom etayotganini tasdiqlaydi.

Quyidaa berilgan infografikada esa asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takribi keltirib o‘tilgan.




2-rasm. 2010-2024 yillar oralig‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tarkibiy qismi infogragikasi[13]

2010 - 2024 yillar davomida O‘zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tarkibiy tuzilmasi sezilarli darajada o‘zgarib, investitsiya manbalarining ichki va tashqi nisbatida aniq strukturaviy siljishlar yuz bergan. Dastlabki yillarda investitsiyalarning asosiy qismi korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lib, ular 2010 - 2015 yillar oralig‘ida deyarli 55 - 60 foiz atrofida barqaror ulushga ega bo‘lgan. Bu davrda iqtisodiyotning asosiy tayanchi mahalliy xo‘jalik subyektlarining o‘z mablag‘lari bo‘lib, ichki investitsiya salohiyati ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Shu bilan birga, 2010 – 2016-yillarda chet el investitsiyalari ulushi yetarlicha past bo‘lib, o‘rtacha 18 - 22 foiz diapazonida shakllangan. Xorijiy moliyalashtirishning nisbatan past darajada bo‘lishi investitsion muhitning cheklanganligi, bozor mexanizmlarining to‘liq shakllanmaganligi hamda valyuta bozoridagi tartiblarning qat’iyligi bilan izohlanadi. Davlat budjeti ulushi esa o‘rtacha 15 - 20 foiz atrofida bo‘lib, davlat investitsiyalari iqtisodiyotda muhim, biroq yetakchi bo‘lmagan moliyalashtirish manbasi sifatida namoyon bo‘lgan.

2017-yildan boshlab tarkibiy tuzilma keskin oʻzgarishni boshlaydi. Xususan, 2017 – 2018-yillarda chet el investitsiyalari ulushi 25 - 30 foizgacha koʻtarilib, investitsiya tuzilmasidagi birinchi yirik burilish nuqtasini tashkil etadi. Bu davrda iqtisodiy liberallashuv, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlarning yaratilishi va valyuta bozorining erkinlashtirilishi natijasida tashqi kapital oqimi sezilarli faollashgan. Shu bilan birga, aynan shu yillarda korxona va aholi mablagʻlari ulushi 60 foizdan 50 foizgacha pasayib, investitsiya tuzilmasida ichki manbalarning nisbiy salmogʻi qisqargan.

2019 – 2021-yillarda investitsiya tarkibida tashqi investitsiya ulushining barqaror oʻsishi davom etgan. Chet el investitsiyalari ulushi 35 - 40 foiz darajasiga yetgan boʻlsa, korxona mablagʻlarining ulushi 45 foiz atrofida shakllangan. Bu davr investitsiya manbalarining diversifikatsiyalanganini va iqtisodiyotning tashqi moliya oqimlariga yanada koʻproq integratsiyalashganini koʻrsatadi.

Umuman olganda, tarkibiy tahlil shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston investitsiya manbalari tuzilmasida ichki manbalardan tashqi kapitalga qarab strategik oʻtish roʻy bergan. Eng kuchli oʻsish chet el investitsiyalari va xalqaro kreditlarda kuzatilgan boʻlsa, eng yirik pasayish korxona va aholi mablagʻlari ulushida qayd etilgan. Bu esa iqtisodiyotning modernizatsiya va yirik loyihalarni tashqi moliya hisobidan amalga oshirish modeliga oʻtganini bildiradi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishni taʼmnlashda YaIM foiz hisobida oʻzgarishi hamda AKI foizda oʻzgarishini emperik tahlil uchun asosiy omillar sifatida tanlab olganmiz. Quytidagi berilgan jadvalda ushbu koʻrsatkichlarni koʻrishimiz mumkin.

2-jadval. YaIM hamda AKI yillar kesimida foizda oʻzgarish koʻrsatkichlari[14]

| Yillar | YaIM | AKI(F) | AKIA(F) | AKIG(F) | AKIP(F) | AKIO(F) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2010 | 88102.4 | 104,2 | 26,4 | 5,2 | 52,5 | 16 |
| 2011 | 115627.8 | 102,6 | 19,8 | 5,5 | 57,1 | 18 |
| 2012 | 142333 | 110,6 | 19 | 4,7 | 56 | 20 |
| 2013 | 173201.5 | 111,3 | 18,1 | 5 | 57,9 | 19 |
| 2014 | 210998.3 | 109,8 | 18,5 | 4,2 | 57,6 | 20 |
| 2015 | 250544.6 | 109,4 | 18,5 | 4,2 | 56,2 | 21 |
| 2016 | 290213.4 | 104,1 | 20,7 | 4,3 | 54,4 | 21 |
| 2017 | 356453.8 | 119,4 | 23,8 | 4,8 | 47,3 | 24 |
| 2018 | 473652.8 | 129,9 | 24,3 | 4,5 | 42 | 30 |
| 2019 | 594659.6 | 138,1 | 43,6 | 9 | 29,3 | 18 |
| 2020 | 668038 | 95,6 | 42,7 | 6,8 | 40,8 | 9 |
| 2021 | 820536.6 | 102,9 | 42,3 | 9,3 | 38 | 10 |
| 2022 | 995573.1 | 100,2 | 42,8 | 8 | 40,6 | 9 |
| 2023 | 1204485 | 123,4 | 56,7 | 6,5 | 31,8 | 5 |
| 2024 | 1454574 | 131,3 | 69,4 | 4,6 | 23,1 | 3 |

Ushbu koʻrsatkichlardan kelib chiqqan holda barqaror iqtisodiy oʻsishning asosiy koʻrsatkichi boʻlgan yalpi ichki mahsulot hamda asosiy kapitalga investitsiyalar va ularning tarkibi oʻrtasidagi OLS regression tahlilni amalga oshirishga harakat qilindi. Ushbu tahlilning asosiy maqsadi ushbu omillar oʻrtasidagi bogʻliqlikni yoritib berishdan iborat. Tahlil jarayonida asosiy eʼtiborni asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi (AKIA(F)) va asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining oʻz mablagʻlari ulushi (AKIP(F)) hamda Yalpi ichki mahsulotga taʼsiri tahlil qilingan.

Birinchi navbatda Yalpi ichki mahsulotga asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi (AKIA(F)) oʻrtasidagi oʻzaro bogʻlanishning regression tahlili amalga oshirilgan.

```
. reg YaIM AKIAF

      Source |       SS           df       MS      Number of obs   =        15
-------------+----------------------------------   F(1, 13)        =    126.68
       Model |  2.3114e+12         1  2.3114e+12   Prob > F        =    0.0000
    Residual |  2.3719e+11        13  1.8245e+10   R-squared       =    0.9069
-------------+----------------------------------   Adj R-squared   =    0.8998
       Total |  2.5486e+12        14  1.8204e+11   Root MSE        =   1.4e+05

------------------------------------------------------------------------------
        YaIM | Coefficient  Std. err.      t    P>|t|     [95% conf. interval]
-------------+----------------------------------------------------------------
       AKIAF |   25203.06   2239.193    11.26   0.000     20365.58    30040.55
       _cons |  -294987.8   80578.08    -3.66   0.003    -469066.1   -120909.4
```

Ushbu regression tahlildan ushbu chiziqli regressiya tenglamasini quyidagicha yozishimiz mumkin.

**YalM = -294987.8 + 25203.06*AKIAF**

2010 – 2024-yillar bo‘yicha o‘tkazilgan regressiya tahlili natijasida asosiy kapitalga investitsiyalarda korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari ulushi (AKIAF) YalM o‘sishi bilan juda kuchli va ijobiy bog‘liqlikka ega ekani aniqlandi. Modelning umumiy statistik ahamiyati yuqori bo‘lib, F-statistikaning qiymati va p-value natijalari AKIAF ko‘rsatkichi YalMdagi o‘zgarishlarni sezilarli darajada izohlab berishini ko‘rsatadi. R-squaredning 0.90 dan yuqori bo‘lishi esa YalM o‘sishining katta qismi aynan ichki investitsiyalardagi siljishlar orqali tushuntirilishini bildiradi.

Regressiya koeffitsiyenti AKIAF uchun ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, bu ichki investitsiyalar ulushi oshgan sari iqtisodiy o‘sishning ham tezlashishini anglatadi. Ya’ni, ichki manbalardan jalb qilingan investitsiyalar ulushidagi har bir oshish iqtisodiy faollikni kuchaytiradi va ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishiga sabab bo‘ladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari iqtisodiyotni ichki resurslar hisobidan qo‘llab-quvvatlashdagi asosiy omil bo‘lib, ichki investitsiya salohiyati oshgan yillarda YalM ham sezilarli darajada ko‘tarilgan.

Umuman olganda, tahlil shuni tasdiqlaydiki, AKIAF ko‘rsatkichining o‘sishi iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ichki investitsiyalarning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, iqtisodiy o‘sish sur’atlari ham shunchalik barqaror va yuqori bo‘ladi. Bu ichki kapitalning iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon qiladi.

Ikkinchi navbatda esa Yalpi ichki mahsulotga asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o‘z mablag‘lari ulushi (AKIP(F)) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishning regression tahlili amalga oshirilgan.

```
. reg YaIM AKIPF

      Source |       SS           df       MS      Number of obs   =        15
-------------+----------------------------------   F(1, 13)        =     52.45
       Model |  2.0423e+12         1  2.0423e+12   Prob > F        =    0.0000
    Residual |  5.0623e+11        13  3.8941e+10   R-squared       =    0.8014
-------------+----------------------------------   Adj R-squared   =    0.7861
       Total |  2.5486e+12        14  1.8204e+11   Root MSE        =   2.0e+05

------------------------------------------------------------------------------
        YaIM | Coefficient  Std. err.      t    P>|t|     [95% conf. interval]
-------------+----------------------------------------------------------------
       AKIPF |  -33162.24   4579.146    -7.24   0.000    -43054.88    -23269.6
       _cons |    2036124   215113.5     9.47   0.000      1571400     2500849
```

Ushbu regression tahlildan ushbu chiziqli regressiya tenglamasini quyidagicha yozishimiz mumkin.

**YalM = 2036124 – 33162.24*AKIPF**

Regressiya natijalari 2010 – 2024-yillar bo‘yicha davlat investitsiyalari ulushi (AKIPF) va iqtisodiy o‘sish (YalM) o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilish imkonini beradi. Modelning statistik ahamiyati yuqori bo‘lib, F-statistikaning p-qiymati 0.0000 chiqishi AKIPF o‘zgaruvchisi YalMdagi o‘zgarishlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

$R^2$ = 0.8014 bo'lishi esa YaIMdagi o'zgarishlarning taxminan 80 foizi aynan davlat investitsiyalari ulushi bilan izohlanishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich modelning kuchli tushuntirish salohiyatiga ega ekanini bildiradi.

Regressiya koeffitsiyentining manfiy ishora bilan (-33 162.24) chiqishi davlat investitsiyalari ulushi oshgan sari YaIMning pasayish tendensiyasiga ega bo'lishini anglatadi. Ya'ni, davlatning asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi ortgan yillarda iqtisodiy o'sish sustlashgan yoki YaIM kamaygan. Bu natijaning iqtisodiy talqini shuni ko'rsatadiki, davlat investitsiyalari ulushining ortishi iqtisodiyotda xususiy sektor faolligining qisqarishi, investitsiya samaradorligining pastligi yoki byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan loyihalarning iqtisodiy qaytimi past bo'lganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, regressiya natijalari davlat investitsiyalarining iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin degan xulosani beradi. Bu esa barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun davlat ulushini kamaytirish, xususiy sektor investitsiyalarini kengaytirish va investitsiya samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyoti misolida 2010 – 2024-yillar oralig'ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi va tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, investitsiyalar hajmi izchil va tezlashib boruvchi o'sish trendiga ega bo'lib, mazkur davr davomida qariyb 35 barobarga yaqin oshgan. Bu jarayon mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya siyosatining liberallashuvi, infratuzilma va sanoatni modernizatsiya qilishga qaratilgan dasturlar amaliy natija berayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, investitsiyalar tarkibida ichki va tashqi manbalar nisbatining sezilarli o'zgarishi, xususan, chet el investitsiyalari ulushining keskin oshishi va korxona hamda aholining o'z mablag'lari ulushining pasayishi investitsion modelning sifat jihatdan yangilanganini ko'rsatadi.

Empirik tahlil natijalari yalpi ichki mahsulotning o'zgarishi bilan investitsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniq tasdiqladi. Yalpi ichki mahsulot va asosiy kapitalga investitsiyalarda ichki manbalar ulushini ifodalovchi ko'rsatkich o'rtasida o'tkazilgan regressiya tahlili ichki investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga kuchli, ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ichki manbalardan jalb qilingan investitsiyalar ulushining ortishi iqtisodiy faollikni kuchaytirishi, ishlab chiqarish hajmini kengaytirishi va barqaror o'sishga xizmat qilishi aniqlangan. Bu holat milliy iqtisodiyotda korxonalar va aholi mablag'lari hisobidan shakllanayotgan investitsiya salohiyatining strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Davlat investitsiyalari ulushi bilan YaIM o'rtasidagi regressiya natijalari esa teskari tendensiyani namoyon qildi. Davlatning asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi oshgan yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari pasaygan yoki sekinlashganligi kuzatildi. Bu, bir tomondan, byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligi yetarli darajada yuqori emasligini, ikkinchi tomondan esa davlat investitsiyalarining ko'payishi xususiy sektor faolligini cheklashi mumkinligini anglatadi. Demak, barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitida davlat investitsiyalari selektiv yondashuv asosida, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy qaytimga ega bo'lgan, bozor mexanizmlarini qo'llab-quvvatlovchi yo'nalishlarga yo'naltirilishi zarur.

Olingan natijalar umumlashtirilgan holda shuni ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun investitsiya siyosatini ichki va tashqi manbalar o'rtasida muvozanatli tarzda yuritish, xususiy sektorning investitsion faolligini rag'batlantirish, "yashil" va innovatsion loyihalarga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalarni kengaytirish hamda davlat ulushini iqtisodiyotda ortiqcha aralashuvsiz, samaradorlik tamoyillari asosida boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlash, investorlar huquqlarini kafolatlash, normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va hududlar bo'yicha investitsiyalarni muvozanatli taqsimlash O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025) '"O'zbekiston–2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida' PF-16-son Farmon, 30-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi (2019) "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-598-son, 25-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) '"Investitsiya loyihalarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"' PQ-5635-son Qaror, 5-sentabr.
4. Gafsi, N. and Bakari, S. (2025) 'Unlocking the relationship between domestic investment, environmental quality, and economic growth: Fresh insights from the USA', Edelweiss Applied Science and Technology, 9(5), pp. 1983–2016.
5. Buchner, B., Naran, B., de Lorenzo, F. et al. (2023) Global Landscape of Climate Finance 2023. San Francisco: Climate Policy Initiative.
6. Sofrankova, B., Kiselakova, D. and Onuferova, E. (2021) 'An empirical view on the determinants of sustainable economic development: Evidence from EU(28) member states', SHS Web of Conferences, 91, 01008.
7. Suleymanov, E. (2021) 'Foreign direct investment in emerging markets: Evidence from Russia since the 2000s', International Journal of Energy Economics and Policy, 11(3), pp. 348–356.

8. Ainur, A. (2025) Moliya tizimi va investitsiya siyosatining Qozog'istonning barqaror iqtisodiy o'sishiga ta'siri.
9. Nabiyeva, S.A. (2023) 'Sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning institutsional omillari', Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 4(3), pp. 33–39.
10. Matyakubova, U. (2024) 'Institutsional omillar va xorijiy investitsiyalar oqimi: O'zbekiston hududlari misolida', Ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnal, 4(1), pp. 78–86.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 12**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz